

ODAM SAVDOSINING SALBIY OQIBATLARI

Rejebbayeva Aygul Zokirboy qizi

O'Zmu Jizzax filiali "Oila Psixologiyasi" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada odam savdosi haqida umumiy tushunchalar, uning ko'rinishlari, insoniyatga salbiy ta'siri va uning oldini olish borasidagi fikrlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Odam savdosi, o'g'irlik, firibgarlik, aldash, majburiy mehnatga jalb qilish, erksizlik, qullik, ozodlik, qonun hujjatlari, aybdor shaxslar, kuch bilan tahdid qilish, majburlash.*

Inson bioijtimoiy mavjudot. U qaysi davrda, qaysi jamiyatda yashamasin har doim erkinlikka intiladi, mustaqil qaror qabul qilishni, jamiyatdagi o'rnini o'zi belgilashni xohlaydi va ularni o'zining asosiy huquqlaridan deb biladi.

Afsuski, bu huquqlarni poymol qiluvchi eng xavfli tushuncha bu odam savdosidir!

Bugungi kunda yer yuzida qullar qolmagan. Hamma hur va ozod. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) hadisi shariflarida ozod odam bolasini sotish qattiq qoralangan: Abu Hurayradan (roziyallohu anhu) rivoyat qilingan, yuqorida ham keltirganimiz hadisda: Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): "Alloh taolo "Men qiyomat kuni uch toifaning xusumatchisi bo'laman: Men bilan ahd berib, keyin aldagan odamning, hurni sotib, bahosini yegan odamning va odam ishlatib, haqini bermagan odamning, deydi" dedilar".

Chet ellarga ishlash uchun ketganlarning ko'plarini odam savdosi qurboni bolibqolganini eshitib qolyapmiz. Qulning orzusi bitta - ozodlikka chiqish bo'lgani singari, o'sha sotilgan insonlar ham kecha bo'lsin, kunduz bo'lsin, tutqunlikdan qutulib, o'z yurtiga qaytish chorasini qidirishadi.

Odam savdosi o'zi nima?

Odam savdosi — kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish yo'li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish.

Odam savdosi o'zi nima ekanligi haqida barchamiz bir qadar tasavvurga ega bo'ldik, ammo uning ba'zi noma'lum va g'ayriinsoniy ko'rinishlari xam borligini eshitganlar oramizda ko'p emas. Savdo degan so'z bilan kelgan ushbu atama odamda pul yoki biror moddiy manfaat ustiga qurilganlik tasavvurini uyg'otadi, lekin odam savdosi har doim ham moddiy manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshirilavermaydi. Odam savdosi majburiy mehnat, majburiy nikoh, jinsiy zo'rvonlik, odam tana a'zolarining ekstraksiya qilinishi, surrogatsiya, bolalar savdosi kabi ko'rinishlarga ega. Bundan tashqari odam savdosining boshqa shaxs nomidan majburiy harbiy xizmatga

yollash, notinch hududlarda portlatuvchi moddalar o'rnatib, aholi gavjum joylarda tirik qurolga aylantirish, ota-onasining qarzini undirish yoki pul talab qilish maqsadida farzandlarini o'g'irlash, laboratoriyalar va tibbiyotda tajriba o'tkazish uchun foydalanish kabi ko'rinishlarda ham mavjud. Ba'zan esa o'ta qashshoqlik yoki moddiy manfaatni ko'zlab ota-onalarning o'zlari ham bolalarini odam savdosining murg'ak qurboniga aylantirib qo'yadilar.

Odam savdosi bir shaxs tomonidan bajarilmaydi. Birgina inson tana a'zolarining noqonuniy savdosi jinoyati yollovchi, tashuvchi, tibbiyot xodimi, vositachi va xaridor (transplantatsiyaga muhtoj bemor) ishtirokida amalga oshadi. Bunda jinoyat amalga oshishigacha bo'lgan jarayonlarda ishtirok etgan barcha shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Eng qizig'i shundaki, odatda yollovchi shaxs yoki jismonan tutqinlikka olishga layoqatli, yoki kuchli psixologik ta'sir o'tkazuvchi mutaxassis bo'lishi ham mumkin. Eng achinarli yana bir ko'rinishi, inson organlarining transplantatsiya qilinish yo'li bilan emas, tashuvchi transport sifatida foydalanilishidir.

Odam savdosi mamlakat ichida yoki chet davlatlarda sodir bo'lishi mumkin. Odam savdosiga qarshi maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ta'sirini o'lchashda duch kelinadigan eng katta muammolardan biri uning ko'lami va qurbonlarning holati bilan bog'liq ishonchli va sifatli ma'lumotlarning yetishmasligidir. Bor ma'lumotlarning asosiy manbalari ham aniqlangan qurbonlar tomonidan taqdim etilgan real voqeeliklarga asoslanadi. Ushbu ma'lumotlar huquqni muhofaza qilish organlari, sud tizimi, jabrlanganlarni himoya qilish va yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari tomonidan to'planadi.

Ishonchli manbalar shuni ko'rsatadiki, jabrlanganlarning ko'p qismi har doim ayollar bo'lgan, chunki odam savdosi avvaldan jinsiy ekspluatatsiya uchun sotilgan ayollarni qamrab oluvchi jinoyat turi sifatida ko'rilgan. Vaqt o'tishi bilan erkaklarning ham bu illat qurboniga aylanishi foizlarda o'sib bormoqda. Qullikning bu zamonaviy ko'rinishi keng tarqalishi bo'yicha Ekvatorial Gvineya, Eron, Shimoliy Koreya, Markaziy Afrika Respublikasi, Suriya, Jazoir, Rossiya, Zimbabve, Liviya va Venesuala davlatlari eng yuqori ko'rsatkichlar bilan ro'yxat boshida turibdi. Yer yuzida har yili 3 milliondan 45 milliongacha odam kontrabandasi holatlari uchramoqda. Bu qurbonlar "odam savdogarlar"iga yiliga 200 milliard dollarga yaqin "foyda" keltirmoqda. Ammo insoniyatgachi?

So'zimiz oxirida shuni eslatib o'tmoqchimizki, odam savdosi yosh, irq, jins, millat, elat tanlamaydi. Oson, qing'ir va noqonuniy yo'llar bilan pul topmoqchi bo'lgan, ayniqsa chet ellarda ulkan boyliklar ilinjida yurgan ayrim insonlar ularning o'ljasiga aylanib qolishi mumkin. Odam savdosi qurboniga aylanmaslik, qalban va aqlan ozod bo'lish uchun ogoh bo'laylik.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Fozilov. I.Y. Odam savdosi- global muammo, unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi,2010.
2. J.Bazarbayev va mualliflar jamoasi. Odam savdosi- qullik kishani. Toshkent, 2013.
3. Yunesko xalqaro me'yoriy hujjatlar to'plami.-T., "Adolat", 2004
4. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi konvensiya -T.,2007
- 5.Dadaboeva, J. (2022). The basics of civil legal regulation of separation from marriage. Research focus, 7(4).